YOSHLAR JINOYATCHILIGINING OLDINI OLISHDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING «MAHALLA ETTILIGI» BILAN HAMKORLIGI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Abbos Abilatibovich Abdilxamedov*

Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasi Jamoat xavfsizligi xizmati Probatsiya boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i, podpolkovnik falsafa fanlar bo‘yicha falsafa doktori

✉ abdilxamedovabbos@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasida yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning barvaqt oldini olishda ichki ishlar organlari, xususan profilaktika inspektorlarining «mahalla ettiligi» tizimi bilan o‘zaro hamkorligining huquqiy-tashkiliy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, amaliyotda uchrayotgan tizimli muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish va ijtimoiy profilaktika samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif hamda yechimlar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar

yoshlar jinoyatchiligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ichki ishlar organlari, profilaktika inspektori, «mahalla ettiligi», ijtimoiy profilaktika, hamkorlik mexanizmlari.

DOI: 10.5281/zenodo.24526539

KIRISH

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri — jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish hamda yosh avlodni jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk va huquqiy ongli shaxslar etib tarbiyalashdan iboratdir. Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmini yoshlar tashkil etishi ushbu qatlam bilan tizimli ishlash va ular o‘rtasida g‘ayriijtimoiy xulq-atvorning oldini olishni davlat siyosati darajasiga ko‘tardi.

So‘nggi yillarda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi [1] va «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi [2] qonunlari, shuningdek, Prezidentimizning «Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uni aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-209-son Farmoni [3] hamda Vazirlar Mahkamasining «Mahalla ettiligi» faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan 292-son Qarori [4] jinoyatchilikka qarshi kurashishda mutlaqo yangi — «ijtimoiy profilaktika» konsepsiyasini joriy etdi. Ushbu tizimda ichki ishlar organlarining mahalladagi bevosita vakili bo‘lgan profilaktika inspektorining «mahalla ettiligi» (mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim va soliq inspektori) bilan uzviy hamkorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda [5].

ASOSIY QISM

An’anaviy yondashuvlardan farqli o‘laroq, zamonaviy profilaktika modeli jinoyat sodir etilgandan keyin jazolashga emas, balki huquqbuzarlikni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, психологик va maishiy omillarni mahallaning o‘zida bartaraf etishga qaratilgan [6]. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning asosiy qismi ishsizlik, yengil daromad topishga intilish, oilaviy muhitdagi nosog‘lomlik, nazoratsizlik hamda huquqiy madaniyatning yetishmasligi oqibatida yuzaga kelmoqda.

Ushbu omillarni bartaraf etishda ichki ishlar organlari profilaktika inspektori hamda «mahalla ettiligi» a‘zolari o‘rtasidagi vazifalar taqsimoti va o‘zaro hamkorlik quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi (1-jadval):

1-jadval. «Mahalla ettiligi» va ichki ishlar organlari hamkorligi yo‘nalishlari

Subyekt nomi	Yoshlar jinoyatchiligi profilaktikasidagi asosiy vazifasi	IIO (profilaktika inspektori) bilan hamkorlik shakli
Mahalla raisi	Hududda jamoatchilik nazoratini o‘rnatish, «ettilik» faoliyatini muvofiqlashtirish va KPI ko‘rsatkichlarini baholash.	«Xavfsiz mahalla» tamoyili asosida qo‘shma reydlar va mahalla fuqarolar yig‘ini muhokamalarini tashkil etish.
Yoshlar yetakchisi	«Yoshlar daftari»ni yuritish, ishsiz va uyushmagan yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, «Besh tashabbus» loyihalarini amalga oshirish.	Profilaktik hisobda turgan yoshlarni sport, madaniyat to‘garaklariga jalb qilish va ularning xulq-atvori ustidan birgalikda monitoring yuritish.
Hokim yordamchisi	Yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish, imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratish orqali ularning bandligini ta’minlash.	Moddiy qiyinchilik tufayli huquqbuzarlikka moyil bo‘lgan yoshlar ro‘yxatini shakllantirish va ularni daromadli mehnatga yo‘naltirish.
Xotin-qizlar faoli	Yosh oilalardagi nizolarni bartaraf etish, ijtimoiy himoyaga muhtoj va xulqida o‘zgarish bo‘lgan qizlar bilan individual ishlash.	Tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini barvaqt aniqlash, himoya orderi berilgan yosh ayollar bilan ijtimoiy reabilitatsiya o‘tkazish.
Ijtimoiy xodim	Og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oilalar va qarovsiz qolgan voyaga yetmaganlarga kompleks ijtimoiy хизматlar ko‘rsatish.	Notinch oilalar farzandlarini aniqlash, vasiylik va homiylik organlari bilan birgalikda bolalar huquqlarini himoya qilish.
Soliq inspektori	Hududda norasmiy bandlikni legallashtirish, yoshlarning qonuniy tadbirkorlik faoliyatiga ko‘maklashish.	Noqonuniy savdo va yashirin iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi yoshlar o‘rtasida profilaktik tushuntirish ishlarini olib borish.

Ichki ishlar organlari va «mahalla ettiligi» o‘rtasidagi hamkorlikni tashkil etish borasida ijobiy natijalarga erishilayotgan bo‘lsa-da, ilmiy-amaliy tahlillar sohada qator yechimini kutayotgan tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda:

1. Axborot almashinuvi va raqamli integratsiyadagi uzilishlar. Profilaktika inspektorlari, yoshlar yetakchilari va ijtimoiy xodimlar foydalanadigan idoraviy elektron platformalar («E-ma’muriy ish», «Yoshlar daftari», «Ijtimoiy himoya» yagona reyestri) o‘rtasida to‘liq avtomatik integratsiya mavjud emas. Natijada huquqbuzarlikka moyil yoshlar haqidagi ma’lumotlarni tezkor almashish va ularning ijtimoiy portretini yaratishda vaqt yo‘qotilmoqda.

2. Vazifalar takrorlanishi va rasmiyatchilik holatlari. Ayrim mahallalarda «ettilik» a’zolari o‘rtasida vakolat va mas’uliyat chegaralari aniq belgilanmagani sababli profilaktik suhbatlar va hujjatlashtirish ishlarida bir-birini takrorlash holatlari kuzatilmoqda. Ba’zi hollarda profilaktika tadbirlari real natijaga emas, balki hisobot ko‘rsatkichlarini to‘ldirishga yo‘naltirilmoqda.

3. Kadrlar qo‘nimsizligi va psixologik-pedagogik bilimlar yetishmasligi. Yoshlar yetakchilari hamda profilaktika inspektorlarining yordamchilari tarkibida kadrlar tez-tez almashishi mahalladagi kriminogen vaziyatni chuqur o‘rganishga to‘sqinlik qilmoqda. Shuningdek, tarbiyasi og‘ir va deviant xulq-atvorli yoshlar bilan ishlashda zamonaviy psixologiya va konfliktologiya ko‘nikmalari yetarli emas.

4. Kibermakondagi tahdidlarga qarshi profilaktikaning sustligi. Bugungi kunda yoshlar o‘rtasida kiberjinoyatlar, onlayn qimor o‘yinlari, giyohvandlik vositalarini internet orqali tarqatish («zakladka»lar) kabi yangi turdagi jinoyatlar ko‘paymoqda. Biroq «mahalla ettiligi»ning an’anaviy usullari raqamli muhitdagi xavflarni barvaqt aniqlash imkonini bermayapti.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni tizimli hal etish hamda yoshlar jinoyatchiligining oldini olishda ichki ishlar organlari va «mahalla ettiligi» hamkorligini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy taklif va yechimlar ilgari suriladi:

Birinchidan, «Yagona ijtimoiy-profilaktik raqamli platforma»ni yaratish. IIV, Yoshlar ishlari agentligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va O‘zbekiston mahallalari uyushmasining axborot tizimlarini yagona ma’lumotlar bazasiga birlashtirish zarur. Bunda har bir mahalla kesimida «xavf guruhi»ga kiruvchi yoshlarning yagona elektron kartasi yuritilib, ularga ko‘rsatilgan ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy yordam natijalari real vaqt rejimida aks ettirilishi lozim.

Ikkinchidan, «Ijtimoiy sheriklik va murabbiylik» institutini institutsionallashtirish. Profilaktik hisobga olingan yoki jinoyat sodir etishga moyil bo‘lgan har bir yoshga «mahalla ettiligi» a’zolari bilan bir qatorda mahalladagi obro‘li nuroniylar, tadbirkorlar va sport ustalarini rasmiy murabbiy sifatida biriktirish hamda ularni rag‘batlantirish mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, «Kiber-mahalla» profilaktik loyihasini amaliyotga tatbiq etish. Profilaktika inspektorlari va yoshlar yetakchilari uchun IIV Akademiyasi bazasida kibergigiyena, ijtimoiy tarmoqlardagi destruktiv guruhlarni aniqlash va yoshlarni raqamli tahdidlardan himoya qilish bo‘yicha maxsus qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkil etish zarur.

To‘rtinchidan, KPI baholash tizimini sifat ko‘rsatkichlariga yo‘naltirish. «Mahalla ettiligi» faoliyatini baholashda o‘tkazilgan tadbirlar soni emas, balki mahalladagi ishsiz yoshlarning bandligi ta’minlangani, probatsiya nazoratidagi yoshlarning qayta jinoyat sodir etmaganligi va nizoli oilalar sog‘lomlashtirilgani kabi aniq sifat indikatorlariga ustuvorlik berish lozim [4].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yoshlar jinoyatchiligining oldini olish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning emas, balki butun jamiyatning umumiy vazifasidir. Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining «mahalla ettiligi» bilan hamkorligi jinoyatchilikka qarshi kurashishda jazolovchi yondashuvdan insonparvar va manzilli ijtimoiy profilaktika tizimiga o‘tishning muhim kafolatidir. Ushbu hamkorlikni raqamlashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish va manzilli murabbiylik tizimini kuchaytirish orqali mahallalarni jinoyatchilikdan xoli xavfsiz hududga aylantirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi O‘RQ-371-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).

2. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi O‘RQ-406-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi «Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uni aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-209-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-maydagi «Mahalla ettiligi» faoliyatini samarali tashkil etish hamda hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) bo‘yicha baholashda mahalla raisining ishtirokini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 292-son Qarori.

5. Tillaxodjayev B.A., Eshpo‘latov D.Z. Ichki ishlar organlarining «mahalla ettiligi» bilan hamkorligi va uni tashkil etish // O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi ilmiy to‘plami. — Toshkent, 2025.

6. Ismoilov I. va boshq. Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati: Darslik. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2024. — 380 b.